

Sobirov R.S.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

Fuqaro muhofazasi instituti o'qituvchisi

O'zbekiston, Toshkent

**TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLARGA HAYOT
FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI O'RGATISHNING DOLZARB
MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligi asoslari va qoidalarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar usullarni qo'llash mohiyati, tamoyillari hamda o'ziga xos jihatlari to'g'risidagi ilmiy taklif va tavsiyalar yoritilgan.

Maqolada ta'lim jarayonini insonparvarlik va demokratiya tamoyillar asosida qurish eng avvalo o'quvchi shaxsini tan olinishi, uning ijodiy faolligini oshirish, o'quvchining ijodiy rivojlanishi, uning ichki imkoniyatlari, o'ziga ishonch, faolligini rivojlantirishasosida ko'riladi. O'quvchining darsdagi faolligini oshirish, uning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, fikrlash uchun faol muhit yaratish – o'qituvchining hozirgi kundagi asosiy vazifalaridan biri bo'lib, dars jarayonida o'qitishning interaktiv metodlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv ta'limda odatdagi ta'limdan farqli o'qituvchining faolligi o'quvchilar faolliklariga ko'chadi.

Fuqaro muhofazasidagi ruhiy tayyorgarlik bu - fuqaro muhofazasiga oid vazifalarni bajarish mamlakat, xalq oldidagi burch ekaniga ishonchni tarbiyalash, bu tinchlik va harbiy haraktlar vaqtlaridagi o'z vazifalarini vijdonan bajarishga, shunday vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zini tayyorlash zarurligini tushunish, ruhiy qiyinchiliklarga chidash ruhida tarbiyalashdir.

***Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, ta'lim islohatlari, tarbiya, fan, hayot faoliyati, xavfsizlik, ko'nikma, ijodiy faollik, pedagogik texnologiyalar, axborot, maktab, o'quvchi, xavfsizlik, o'qitish usullari, favqulodda vaziyat, fuqaro muhofazasi targ'iboti, falokat, halokat, xavf-xatar.*

Собиров Р.С.

Министерство чрезвычайных ситуаций Республики Узбекистан

Преподаватель Института гражданской защиты

Узбекистан, Ташкент

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖИ
БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ИХ РЕШЕНИЯ**

***Аннотация:** В статье изложены научные предложения и рекомендации по сущности, принципам и особенностям использования современных педагогических технологий и методов при обучении основам и правилам безопасности жизнедеятельности в дошкольных, общеобразовательных, средних специальных, профессиональных и высших учебных заведениях Республики Узбекистан.*

В статье рассматривается построение образовательного процесса на основе гуманистических и демократических принципов как прежде всего основанного на признании личности студента, повышении его творческой активности, творческом развитии студента, его внутренних возможностей, уверенности в себе, развитии его активности.

Повышение активности ученика на уроке, развитие его творческих способностей, создание активной среды для мышления является одной из основных задач учителя сегодня, и использование интерактивных методов обучения в ходе урока имеет большое значение.

В интерактивном образовании деятельность учителя, отличается от обычного обучения, переносится на деятельность учащихся.

Психологическая подготовка в области гражданской защиты направлена на воспитание веры в то, что выполнение задач по гражданской защите является долгом перед страной и народом, на понимание необходимости быть готовым к добросовестному выполнению своих обязанностей в мирное время и во время военных операций, преодолевать трудности в таких ситуациях, а также на воспитание в духе преодоления психологических трудностей.

Ключевые слова: *система образования, образовательные реформы, образование, наука, жизнедеятельность, безопасность, умение, творческая деятельность, педагогические технологии, информация, школа, ученик, безопасность, методы обучения, чрезвычайная ситуация, гражданская защита, катастрофа, разрушения, опасность.*

Sobirov R.S.

Ministry of Emergency Situations of the Republic of Uzbekistan

Lecturer at the Civil Protection Institute

Uzbekistan, Tashkent

URGENT ISSUES IN TEACHING YOUTH LIFE SAFETY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS

Abstract: *The article presents scientific proposals and recommendations on the essence, principles and peculiarities of using modern pedagogical technologies and methods in teaching the basics and rules of life safety in preschool, general education, secondary specialized, professional and higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan.*

The article considers the construction of educational process on the basis of humanistic and democratic principles as primarily based on the recognition of the student's personality, increasing his creative activity, the creative development of the student, his inner capabilities, self-confidence, the development of his activity.

Increasing student's activity at the lesson, developing their creative abilities, creating an active environment for thinking is one of the main tasks of the teacher today, and the use of interactive teaching methods during the lesson is of great importance.

In interactive education, the teacher's activity, different from conventional teaching, is transferred to the students' activity.

Psychological training in the field of civil defense is aimed at fostering the belief that the performance of civil defense tasks is a duty to the country and the people, at understanding the need to be ready to faithfully perform their duties in peacetime and during military operations, to overcome difficulties in such situations, as well as at education in the spirit of overcoming psychological difficulties.

Keywords: *education system, educational reforms, education, science, life activity, safety, skills, creative activity, pedagogical technologies, information, school, student, safety, teaching methods, emergency, civil defense, disaster, destruction, danger.*

Kirish: Favqulodda vaziyatlar sabablarining tahlili natijalari 90 foiz holatlarda inson faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bunda kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi, mas'uliyatsizlik va favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga oid bilim, ko'nikma va malakalarining yeimshmasligi sabab bo'ladi. Olib borilgan tadqiqot ishlari doirasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumta'lim maktablari, o'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda oliy ta'lim muassasalari talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalarini va usullariga o'rgatish, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashning asosiy vazifalari qilib belgilab olindi. Ushbu vazifalar quyidagi yo'nalishlarda: maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari – doimiy ravishda

maktabgacha ta'limning davlat talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va uning oqibatlariga oid muammoli-vaziyatli o'yinlar va mashg'ulotlarda; umumta'lim maktablari o'quvchilari – o'quv yili davomida, umumta'limning davlat talim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq, favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish bo'yicha darslarda, shuningdek, hududiy Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlarida; o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalar o'quv yili davomida, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim va oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq, hayotiy faoliyat xavfsizligi darslarida, internet jahon axborot tarmog'ida favqulodda vaziyatlar va uning oqibatlaridan muhofazalanishga oid ma'lumotlardan foydalanish, mobil ilovalar, shuningdek, milliy elektron platforma orqali malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida hamda hududiy o'quv markazlarida tayyorgarlikdan o'tkazilishi belgilingan. Bu ishlarni tizimli amalga oshirish uchun aholining barcha qatlamini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha o'qitish va tayyorgarlikdan o'tkazish uzluksiz ravishda olib borilishi hamda millati, yoshi, faoliyat turi va boshqa omillardan qat'i nazar o'qitish va tayyorgarlik jarayonida aholining barcha toifasi qamrab olinishi nazarda tutilgan [8].

Mamlakatimizda so'ngi yillarda, xususan yangi O'zbekiston renessansi davrida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar doirasida aholini barcha qatlamlarini jumladan, respublikamiz maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalarini hayotiy faoliyat xavfsizligi sohasida tayyorlash, o'qitish holatini yaxshilash, ularning xavfsiz turmish darajasini yuksaltirishga, shart-sharoitlarini texnika xavfsizligi hamda sanitariya va mehnat muhofazasi talablarini yuksak darajaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim jarayonida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi” va “Ta’lim to’g’risidagi” Qonun qabul qilinishi bilan uzliksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi [7]. Bugungi kun ta’lim tizimi ijobiy o’zgarishga yuz tutib, ta’lim sohasi tubdan takomillashtirilmoqda. Ta’lim barcha sohalarida eng zamonaviy o’qitish vositalaridan foydalanilmoqda. Ta’lim muassasalari zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta’minlanmoqda. Ijtimoiy hayot tarzi ta’limga bo’lgan qiziqish va intilishlar faollashmoqda. Yangi taxrirda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun ta’lim tizimi mazmunini tubdan o’zgartirib yubordi. Jumladan, oliy ta’lim o’quv rejalariga zamon va hayot talablaridan kelib chiqib katta o’zgartirishlar kiritildi. Yosh mutaxassislariga har bir sohada chuqur va keng qamrovli ma’lumot berish, ularga berilgan bilim ishlab chiqarishda va jamiyatda o’z aksini va dolzarbligini yo’qotmaydigan bo’lishiga va ularning bilim darajalari dunyo ta’lim standartlari qo’ygan talabga javob berishiga asosiy ahamiyat qaratilmoqda. Zamonaviy hayotdagi ishlab chiqarish samaradorligini yetuk kadrlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Har sohada inson omili, uning qadr qimmatini birinchi o’ringa qo’yilib ish tashkil etilgan joyda yutuqlar barqaror bo’lishi shubhasiz.

Inson tug’ilishi bilan yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqiga ega bo’ladi. Inson o’zining yashash, dam olish, sog’ligi haqida qayg’urish, qulay atrof muhit, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitida ishlashga bo’lgan xuquqlarini hayot faoliyati jarayonida amalga oshiradi. Uning bu huquqlari O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan.

Hayot faoliyat xavfsizligi insonni har qanday muhitdagi ishtirokida uning xavfsizligi va sog’ligini ta’minlovchi, xavfli va zararli omillardan himoya qiluvchi amaliyot va nazariyani qamrab olgan ilmiy bilimlar majmui ekanligini inobatga olib, Yangi O’zbekiston - inson qadri ustuvor bo’lgan jamiyat va xalqparvar davlatda fuqarolarni xavfsizligi birinchi o’rindagi eng dolzarb masala

hisoblanadi. Shunday ekan Hayot faoliyat xavfsizligi fanini barcha aholi qatlamiga o‘qitish va o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev takidlaganlaridek, “Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo‘lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin” hamda “Ta’lim tarbiya-bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi”. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishgi haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak” degan so‘zlaridan kelib chiqib, barcha toifadagi rahbarlar, birday harakat qilsa kelajakda eng rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lamiz [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taravviyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon bilan tasdiqlangan yo‘nalish, maqsadva vazifalarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish hamda sohadagi qonun hujjatlarini takomillashtirish belgilanganni tizimning yanada rivojlanishiga va takomillashuviga ijobiy omil bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrda “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 754 - sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan aholining barcha qatlamini, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘quvchilari hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari bilan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish hamda favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan [9].

Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari borayotgan hozirgi davirda ta'limning barcha bo'g'inlariga, aynan inklyuziv ta'limga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustkvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish" ustuvor vazifalar etib belgilangan. Bu esa, imkoniyati cheklangan o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlashning psixologik va pedogogik shart-sharoitlarini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal rivojlanishi, yangi texnologiyalarning takomillashtirilishi va yaratilishi jamiyat va inson manfaatlariga xizmat qilish uchun mo'ljallangan bo'lsada, yangi ijodiy natijalar bilan bir qatorda potensial xavf tug'diradi. Xavf manbalarini o'rganib, uchta jamlangan maydonni ajratib ko'rsatish mumkin: [2]. Insonning ushbu muhitda bo'lishi uchun qulay sharoitlarni yaratish, xavfsizlik darajasini va birinchi navbatda, insoning shaxsiy fazilatlariga bog'liq bo'lgan individual darajasini oshirish muhim ro'l o'ynaydi. Aholi o'rtasida ko'plab qurbonlar bo'lgan turli xarakterdagi favqulodda vaziyatlarni ko'payishi kundalik hayotda va ekstremal vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlay oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqazo etadi.

Ta'lim jarayonida hayot faoliyat xavfsizligini o'rganish sohasida uchta daraja mavjud: Umumiy ta'lim, oliy ta'lim, hayot xavfsizligi mutaxassislarni tayyorlash. Har bir daraja ma'lum ma'lumotlarni olishga qaratilgan bo'lib, bilimlarni yig'ish tamoyili asosida qurilgan. "Hayot faoliyat xavfsizligi" fanini o'rganishda nazariya va amaliyotning birligi, ayniqsa favqulodda vaziyatlarda olingan bilimlarni amalda qo'llash qobiliyati inson salomatligi va hayotiga bog'liq bo'lganda muhimdir [3].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 19 iyuldagi qarorida aholiga favqulodda vaziyatlar va ular sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakatlanishga oid bilim-malakalarini izchil singdirish va ularga bu kabi vaziyatlarga ham ruhan, ham jismonan shay turishdek asosiy maqsad ko‘zlangan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tomonidan yosh avlodni ham ma‘nan, ham jismonan barkamol etib tarbiyalashga muhim e‘tibor qaratib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda ta‘lim oluvchilarning dunyoqarashini boyitish, ularda Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxildorlik hissi, milliy g‘ururni shakillantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, yuqori intellekt hamda yuksik ma‘naviyatli qilib tarbiyalash hamda xavfsizlikni ta‘minlash “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” kursining oldidi turgan muhim vazifalardan biridir.

Dunyoda keskin o‘zgarishlar, favqulodda holatlar yuz berishi, kutilmaganda baxtsiz hodisalarga uchrashi, “Hayot faoliyat xavfsizligi” fanini o‘rganishda nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga, aholining barcha qatlamlarini o‘qitib o‘rgatishga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligidan foydalanishni taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligidan foydalanishdan oldin, pedagog olimlar V. M. Shepel, B.T. Lixachev, I. P. Volkov, V. M. Monaxov, U. Nishonaliev, V. Yu. Pityukov, V. K. Dyachenko, M.V.Klarin G. K. Selevkolarning qo‘llanmalari, ilmiy adabiyotlari va fikrlari bilan tanishish hamda quyidagi tushunchalarga asosiy e‘tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir [4].

Texnologiya (yunon. “techne” – mahorat, san‘at, “logos” – tushuncha, ta‘limot) – muayyan (ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy va b.) jarayonlarning yuksak mahorat, san‘at darajasida tashkil etilishi.

Ta'lim texnologiyasi (ingl. "an educational technology") – ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi Ta'lim texnologiyasi – ta'lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmuni, ya'ni, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim jarayonini yaxlit tizim asosida, bosqichma - bosqich amalga oshirish, aniq maqsadga erishish yo'lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta'lim jarayonini yuqori darajada boshqarish.

Ta'lim metodi – o'quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo'naltirilgan o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati usuli bo'lsa, ta'lim metodikasi esa muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi [5].

Bugungi kunda ta'lim texnologiyalarini shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin, ular *an'anaviy va noan'anaviy*:

an'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, o'qitishning an'anaviy shakli, metodi va ta'lim vositalarining majmuidan foydalanib ta'lim-tarbiya maqsadiga erishishdir;

noan'anaviy ta'lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni markazida talaba shaxsi bo'lib, o'qitishning zamonaviy shakli, faol o'qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta'lim-tarbiya ishidan ko'zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo'naltirishdir.

Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyasidan farq qilib, talabalarning bilish imkoniyatlarini rivojlanishiga sharoit yaratadi, mustaqil ishlashlariga alohida e'tibor beriladi, bilish faoliyatlari izlanuvchan va ijodiy harakterga ega bo'ladi. Dars tuzilmasi o'zgaruvchan Noan'anaviy ta'lim texnologiyasi o'z navbatida uchga bo'linadi: hamkorlikda o'rganish, modellashtirish, tadqiqot (Loyiha) bo'ladi.

Hamkorlikda o'rganish-talabalarning bilimini o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani ketma-ketlik bo'yicha talabaning bevosita boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olishdir. U talabalarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadigan metodrdan iborat. Bularga kitob bilan ishlash, o'quv suhbat, davra suhbat, aqliy xujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara kabi metodlarni kiritish mumkin.

Modellashtirish - real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini auditoriyada yaratish va ularda talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'lim olishini ko'zda tutadi. Uning asosiy maqsadi talabalarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o'zlashtirishda bevosita ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bularga ishbop o'yinlar va rolly o'yinlar kabi metodlarni kiritish mumkin [6]. Fanlararo aloqadorlikni pedagogik faoliyat su'bektlarining quyidagi yo'nalishlarni muvofiqlashtirishni bildiradi:

O'quv materialining mazmuniga ko'ra, hayot faoliyati xavfsizligi chuqurroq o'zlashtirish uchun talabaning boshqa fanlardan olgan bilimlaridan foydalanish, o'zaro qonunlar va nazariyalarni talqin qilishning birligi, turli fanlardan o'rganiladigan o'zaro bog'liq hodisalar, jarayonlar, hodisalar haqidagi tushunchalarni talqin qilishning birligi, turli fanlar bo'yicha o'rganiladigan o'zaro bog'liq materiallarni tanlashni muvofiqlashtirish;

hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi shakllangan ko'nikmalarga ko'ra, o'quvchilarni o'quv va o'quv-ishlab chiqarish ishlarini rejalashtirishga o'rgatish usullarini muvofiqlashtirish; intellektual, amaliy ko'nikmalarni, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishga yondashuvlar birligini, o'qitish uslublari va vositalari bo'yicha: turli fanlarda qo'llaniladigan o'quv-tarbiya ishlarining mutodlari va o'qitish usullarini

muvofiglashtirish; o'quv qurollari va ularni hayot faoliyati xavfsizligi darslarida qo'llash usullarini mujassamlashtirish;

o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlanishi usulari va vositalari bo'yicha ta'lim jarayonini xavsizlik, insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, hamkorlik pedagogikasi g'oyalari va tamoyillari asosida boshqarish; o'rganilayotgan materialni hayot bilan, amaliyot bilan bog'lash, barcha o'qituvchilardan talabalarga qo'yiladigan pedagogik talablarning birligi va mujassamlashtirish, o'quvchilarning jamoaviyligini, sherikligini, va o'zaro yordamini rivojlantirish; hayot xavfsizligini ta'minlash va sog'lom turmush tarzini saqlashda o'qituvchining shaxsiy namunasiga erishmoq lozim.

Fanlar o'rtasidagi bog'liqlik ta'lim tuzilmalaridan biri bo'lib, ushbu fanni o'rganishda boshqa fanlar bo'yicha bilimlardan foydalanishga imkon beradi. Shundagina, mutaxassisning turli fanlar bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalari o'zaro bog'langan va o'zaro bog'liq bo'lib, yagona kompleksni ifodalagan holda uning sifatli tayyorlanishi mumkin. O'quv tematik rejalari va boshqa rejalashtirish hujjatlarini tayyorlashda o'quv mavzulari darajasida fanlararo aloqalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotlarimiz davomidagi kuzatish, o'rganish va tahlil qilish natijalariga ko'ra, respublikasiz ta'lim tizimidagi muassasalarda hayot faoliyati xavfsizligini o'qitish va o'rgatishni quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalari samarali va maqsadli hisoblanadi, xususan:

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya mashg'ulotlari tarkibiga "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" tushunchalarini integratsiya qilingan holda ko'nikma hosil qilish (shakllantirish) bo'yicha tavsiyaviy shakl sifatida quyidagilar taklif etiladi:

Bola tabiatda yolg'iz, kutilayotgan natija, bolalarda haqiqiy xavfsizligi tushunchalarini shakllantirish: Hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar Hayot xavfsizligi tushunchalarini

shakllantirishdagi yuzaga kelgan muammolarni kutilayotgan natija bolalarni hayotda, ya'ni tabiatda yolg'iz qolganda uy hayvonlari, har turdagi hasharotlar va sudralib yuruvchilarga tegmaslikni o'rgatish. Har turdagi hasharotlar va sudralib yuruvchilarga zarar yetkazmaslik xavfli vaziyatga tushmaslik choralari haqida tushuncha hosil qilish. Bunda xavf xatarlarni yuzaga kelishi, oqibatlarini va ulardan saqlanish bo'yicha tushunchalar beriladi.

Hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirishdagi qiyinchiliklar:

bolalarga umumiy ma'lumot berilgandan so'ng, bolalar uy hayvonlari har turdagi hasharotlar va sudralib yuruvchilar bir-biridan farqlashda qiyinchiliklarga duch keladi, shunda ularga ko'rgazmali tasviriy vositalardan foydalanish zarur bo'ladi.

Hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirishdagi yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish yo'llari: bolalar ongi va tasavvurida yaxshi aks ettirish maqsadida, uy hayvonlari har turdagi hasharotlar va sudralib yuruvchilarni sahna ko'rinishi asosida tushintirildi.

Taklif, xulosa va bolada tushunchalarni shakllanish darajasi: bolalar tushunchaga ega bo'ldi. Ushbu mavzu asosida videoroliklar, slaydlar, rasmlar ko'proq tayyorlansa. Tayyorlangan rasmlarni bolalarga ko'rsatib rasm chizdirish yanada samarali usul bo'ladi.

Mavzu: Bola uyda yolg'iz bo'lganda eshiklarni quliflanib qolishi. Bolalarda hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirish: bolalarni ayrim holatlarda uyda yolg'iz bo'lganda uy eshigini ichkaridan quliflanib qolib, uzoq vaqt, ya'ni tashqaridan yordam kelgunicha ichkarida qolib ketib, qo'rquvga tushib qoladilar. Uy eshigini ichkaridan har xil turdagi qulflarni o'ynayman deb ichkaridan yopib qo'yganda vaximaga tushmaslik xavf tug'diradigan narsalarga teginmaslik haqida tushuncha berish.

Hayot xavfsizligi tushunchalarini shakllantirishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish yo'llari: mashg'ulotda olingan tushuncha, ko'nikma

va malaka savol va topshiriqlar asosida o'tkazildi. Bog'cha xonalarida sahna ko'rinishi asosida tushuntirildi.

Taklif, xulosa va bolada tushunchalarni shakillanish darajasi: bolalar tushunchaga ega bo'ldi. Ushbu mavzu asosida videoroliklar, slaydlar, rasmlar, ko'proq multfilm tayyorlansa maqsadga muvofiqdir.

Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha o'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar umumiy nuqtai nazaridan. O'yin texnologiyalari.

O'quv jarayonida faollashtirish va intensivlashtirishga tayanadigan o'qituvchi o'yin faoliyatidan quyidagi hollarda foydalaniladi:

1) havaskor texnologiyalar sifatida o'quv fanining mazmuni tushunchalari, bo'limlari, mavzularni ishlab chiqish uchun;

2) boshqa texnologiyalarda elementlar sifatida;

3) darsni (sinfni) yoki uning bir qismini tashkil etishda yetakchi texnologiya sifatida (kioish, yangi materialni tushuntirish, o'rganilgan narsalarni mustahkamlash, mashqlar, nazorat);

4) sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda (kollektiv ijodiy faoliyat).

O'yin texnologiyalari o'quv jarayonining bir qismi bo'lib, umumiy mazmun, syujet, xarakter bilan birlashtirilgan. Bunda o'yin syujeti ta'limning asosiy mazmuni bilan parallel ravishda amalga oshiriladi va o'quv jarayonini faollashtirishga yordam beradi. Masalan, Favqulodda vaziyatlar, Fuqaro muhofazasi va Yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonunlari hamda Hayot faoliyat xavfsizligi asoslari va qoidalarini o'qitishda talabalar va o'quvchilarni qutqaruvchi, yong'in-qutqaruvchi, shifokor, razvedkachi, professor-o'qituvchi va boshqa kasb egalari sifatida harakat qilishlari, birinchi o'rinda ushbu kasblarga bo'lgan qiziqishi va muxabbatni, ikkinchi o'rinda esa o'zlarining xotiralarida haloskor bo'lish orzusi umrbod saqlanishi mumkin deb o'ylayman.

Maktabda hayot xavfsizligi asoslari bo'yicha integratsiyalashgan darslar turli yo'llar bilan fanlararo va tizimlararo integratsiya bo'yicha amalga

oshirilishi mumkin: ikki, uch, va to'rtta mavzuni birlashtirish, musobaqalar, o'yinlar, ijodkorlik darslari, ommaviy muloqot shakllariga taqlid qiladigan darslar (konferensiya, manbuot anjumani, munozaralar, og'zaki jurnal va boshqa) shakllari.

Yong'in, gaz portlashlari juda og'ir oqibatlariga olib keladi. Tadqiqotchi-psixolog Syuart "Halokatda omon qolish" degan kitoblarida yozishlaricha, ko'pchilik uchun yong'in vaqtida uning alangasi do'zax o'ti bo'lib tuyuladi. Ehtimolki, yong'in vaqtida odamlarni qaysidir boshqa xavfli vaziyatdagidan ko'ra kuproq vahima bosadi. Bu xavfli xodisaning hususiyati avval vahima qilib qochishdan iborat. Bu odamning xavfli vaziyatdan qochib qutilishga urinishidan boshqa narsa emas. Odam hamma narsani unutib, hech kim bilan hisoblashmaydi, asosiy maqsad butun vujudini qamrab olgan, ba'zan mutlaqo asossiz qo'rquvdan qutulish bo'ladi. Yong'indagi vaziyatni odam o'zining omon qolishiga to'g'ridan to'g'ri tahdid deb tushunadi, badanni muzdek ter bostirib yuboradigan, qattiq qo'rquv hissi paydo bo'ladi, fojia bir zumlikkina bo'lib tuyuladi, miyada esa darhol harakat qilish kerak, degan fikr tug'iladi. Tabiiyki, odam o'zini nazorat qila olmay qoladi. Buning sababi juda oddiy: odam xavfli sharoitda faqat o'zini o'ylaydi, atrofidagi hech kimni va hech nimani sezmaydi. Shuning uchun, o'ylamay netmay, beixtiyor harakat qiladi. Murakkab sharoitda istalgan kishining hayot uchun xavfli vazifani bajarishga tayyor ekaniga ishonib ish tutib bo'lmaydi. "Hech nimadan qo'rkmaydigan" odam bo'lmaydi. Hamma gap sarosima hissini yengib o'tish uchun, to'g'ri qarorga kelib, harakat qila boshlash uchun kerak bo'ladigan vaqtda. Shoshilinch vaziyatga tayyorgarlik ko'rgan odamda bu anchagina tez bo'ladi. Tayyorgarligi yo'q kishida esa harakatsizlik, xovliqish uzoq vaqt saqlanib turadi-da psixika buzilishini kuchaytirib yuboradi. Favqulodda vaziyatlar yuz berishi ehtimoli borligini va xavf darajasi to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib borish kerak. Biroq, bunda odamlarni qo'rqitmaslik, balki bu xavfni unutmaslik, favqulodda

vaziyatlar sodir bo'lganda muhofazalanishga tayyor turishga da'vat etmoq kerak. Shunda favqulodda vaziyatlar oqibatida yetadigan zararlar eng kam darajada bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish professor - o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'sirisiz mumkin emas, bu "o'qituvchi-talaba" tizimidagi suhbatdoshlarni teng sub'ektlar sifatida qabul qilishni nazarda tutadi, ya'ni bir jarayonning ikkita sub'ekti birgalikda harakat qilish kerak, ularning hech biri ikkinchisida hukmronlik qilmasligi kerak. O'qituvchi ham, o'quvchilar ham ta'lim jarayonining sub'etklari hisoblanadi. Ammo o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatining yetakchisi roli ham beriladi, bu ularning mustaqil ishlashi, faolligi va ijodiy izlanishni rag'batlantiradi. Ong va faollikning uyg'unligi o'quvchilarda mutaqil fikr yuritish, xulosalar chiqarshi, vaziyatni ob'ektiv baholash va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Bu kombinatsiya muammoli vaziyatlarni hal qilishda tashabbus va ijodkorlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Onglilik, faollik va mustaqillik tamoyilini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak: interfaol ta'lim usularidan faol foydalangan holda muayan vaziyatda vazifani hal qilish maqsadini aniq tushunishga yerishish; mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'proq e'tibor berishi, o'quvchining aqliy faoliyatini faollashtirish, o'rganilayotgan materialni tushinish, mexanik yodlashni istisno qilish. Nazariya va amaliyotni o'zaro bog'liqlik usulini amalga oshirishda fanni o'rganishda izchillik va izchillik tamoyiliga qa'tiy rioya qilishga, ularni tushinishga asoslangan bilimlar tizimini shakllantirishga asoslangan munosabat va shu bilan birga sinflarning uzluksizligini saqlab qolish. Qayd etib o'tilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi tushuncha va bilimlarni o'rgatish va o'qitishda qo'llash èsh avlodni hayotga va jamiyatga tayyorlashda ijobiy natijalar beradi.

Xulosa: “Zamonaviy hayot faoliyati xavfsizligi darsini o‘z ijodiy ishlanmalaridan faol foydalanish fonida, uni qurish nuqtai nazaridan ham, o‘quv material, pedagogik texnologiya mazmunini tanlashda ham darsning klassik tuzilishini o‘zlashtirishni aks ettirishi va uning taqdimotini o‘rgatishdir. Zamonaviy darsning a‘naviy darsdan tub farqi shundaki, natijalar nafaqat fan bilimi, axborot texnologiyalar yordamida o‘zlashtirish, bu bilimlarni nostandart hayotda omon qolishda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Yuqorida qo‘llanilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalari o‘quv jarayoni samaradorligini, shaxsiy fikrlar kuchayganini, o‘quvchilarning onglilik va tayèrgarlik darajasini yuqori natijalarga erishilganini, o‘qitishda “professor - o‘qituvchi-talaba” pedagogik texnologiyasi eng samarali usul ekanligini o‘tkazilgan taxlillar natijalariga ko‘ra namoyon bo‘ldi. Bugungi kunda an‘naviy va innovatsion pedagogik ta‘lim texnologiyalarni yoshi, guruhi, guruh mutaxassisligi, yashash sharoitlari hamda joylashgan xududlarini ham inobatga olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan olib borilgan dars mashg‘ulotlarda yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gazeta.uz/uz/2022/01/28/Mirziyoev. Sh.M.
2. Александрова О.Б., Дрожжин М.А., Моисейкин Д.А. Теория и практика как взаимосвязанные категории в освоении дисциплины «Безопасность жизнедеятельности» Проблемы современного педагогического образования. Сер.: Педагогика и психология. – Сборник научных трудов: - Ялта: РИО ГПА, 2019. – Вып. 65. – Ч.4. – С 13-16.
3. Современные педагогические технологии: учебное пособие для студентов-бакалавров, обучающихся по педагогическим направлениям и специальностям Автор-составитель: О.И. Мезенцева; под. ред. Е.В. Кузнесовой; Куйб. фил. Новосиб. гос. пед. ун-та. – Новосибирск: ООО «Немо Пресс», 2018. – 140 с.

4. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq-ta'limi xodimlari uchun o'quv qo'llanma). Tuzuvchilar: J.V.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov.www.ziyouz.com kutubxonasi 7 bet.

5. O'zbekiston milliy ensiklopeiyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 169-bet.

6. O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. texnologiyalar" bo'yicha "Innovatsion O'quv qo'llanma. faoliyat va ilg'or Tuzuvchilar: pedagogik Ahmadaliev A.M. prof., Qosimov A. X. 42-46 betlar.

7. R.Ishmuhammedov, M.Yuldoshev Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma). Toshkent 2003 yil, 3-bet.

8. O'zbekiston Respublikasi "Muhofaza" ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-amaliy va badiiy jurnalining №10 –son, 2024y. 10-11 bet.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentabrda "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 754 - sonli Qarori.